

## SIYOSIY ELITA SAMARADORLIGI: O'ZGARISH VA MEZONLARI

**Kamolov Jamoljon Baxtiyor o'g'li***Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada siyosiy elitning o'zgarishlar va mezonlari mavzusida fikr yuritiladi. Elita tushunchasi va ularning siyosiy huquqlari, qobiliyatlari va imtiyozlari ko'rib chiqiladi. Siyosiy elita o'zgarishlarda, bilim va ko'nikmalarni qo'llashda, jamoatchilikga xizmat qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, shuningdek, ularning samaradorligi va tushuntirishlari to'g'risida ko'rsatmalar haqida so'z yuritiladi*

**Kalit so'zlar:** *siyosiy elita, o'zgarish, mezon, samaradorligi, huquq, ko'nikma, jamoatchilik.*

“Elita” atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib, saralangan, saylangan degan ma'noni bildiradi. Siyosiy elita esa alohida ijtimoiy sifatlarga, siyosiy ta'sir etishning muayyan darajasiga ega bo'lgan va u yoki bu davlatning hokimiyat institutlari uchun rahbar kadrlarning asosiy manbai hisoblangan katta ijtimoiy guruhlariga mansublikni anglatadi. Siyosat sub'ektlari orasida muhim o'rinni egallovchi siyosiy elitalar tarkibiga oliy rahbar kadrlar, boshqaruvchilar, katta obro'ga ega bo'lgan g'oyaviy ish bilan shug'ullanuvchilar, Shuningdek, iqtisodiy va ma'muriy doiralar, ommaviy axborot vositalari, ta'lim-tarbiya muassasalarining ko'zga ko'ringan vakillari kiradi.

Siyosiy rejim belgilari sifatida siyosiy yetakchilik uchun kurash tabiatini (ochiq, yopiq), xalqning siyosiy hayotga jalb etilganligini, xalqning siyosatdan chetlatilganligi yoki unga siyosatga ta'sir etish imkonining berilganligini, siyosiy rahbariyat qanday qadriyatlarga suyanishi (konservatizm, reformizm, revolyutsionizm va hokazolar)ni sanab o'tish mumkin. Yuqoridagi belgilarga ko'ra siyosiy rejimlar totalitar, avtoritar, demokratik rejimlarga bo'linadi.

Siyosiy yetakchilikni shakllantirishda nomenklatura printsiplari hech qanday siyosiy muxolifning aralashuviga imkon bermaydi, yetakchining axloqiy va siyosiy jihatdan buzilishiga olib boradi. Vaqt o'tishi bilan nomenklaturaga xos yetakchilik o'z effektivligini yo'qota boradi. Brejnev, Chernenko kabi sobiq Sovet yetakchilarining siyosiy faoliyati bu fikrning isbotidir. Goho vaziyat taqozosi bilan ushbu printsiplarni buzishga xarakat qiluvchi, hukmron guruhga “begona” bo'lgan shaxslarning hokimiyat tepasiga kelishi ehtimoli ham ro'y beradi. M.S. Gorbachyovning 1985 yilda hokimiyat tepasiga qolishini shu bilan izohlash mumkin.

Stixiyali tanlash (quyidan ko'tarilish). Bunda ijtimoiy fikr shkalasi yo'nalishiga tayaniladi. Bunday tanlash usuli siyosiy yo'lning tub burilish davrida yangi yetakchilarni paydo qiladi.

Yetakchi rahbarlarni maqsadga muvofiq shakllantirish-siyosiy ta'lim va amaliyotni o'z ichiga qamrab oluvchi yaxlit bir tizimni taqozo etadi.

Elita - jamiyat ta'sir qilish imkoniga ega bo'lgan odamlar, bu guruh. Siyosiy elita bu - kommunikatsiya, va rahbarlik sifatлари: donolik, karizmasi, tahlil qilish qobiliyati, rejasi harakatlar va muzokaralarni o'z ichiga olgan kuch.

Siyosiy elita, bir davlatning rahbarlik qilgan kishilardan iborat bo'lgan guruhdir. Bu elita yuqori xodimlar, siyosiy partiya liderlari, va boshqa hukumat tarkibiy organlardagi muxlislar, oliy sheriklar, korporativ kompaniya yetakchilari va boshqa kuchli tashkilotlar bilan ham shakllanishi mumkin.

Siyosiy elita, bir necha asosiy sabablar bilan, qarashlarga va resurslarga asosan moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy imtiyoza ega bo'lgan kishilardan iboratdir. Bu imtiyoz egalar ya yuqori ta'limli va kreativ sohasida yetakchilikka ega bo'lish orqali ya xususiy huquqlarni, ma'muriy ranglarni yoki kuchni hurmat qilish orqali yetkaza olganlardan tashkil topadi.

Siyosiy elitaning o'zgarish va mezonlari bir qancha asosiy yo'nalishlarda ifodalangan. Birinchi yo'nalish - siyosiy yo'nalishdagi o'zgarishlar: siyosiy muhitning o'zgarishlari, partiya qonunlarining va qoidalarning o'zgarishlari, shaxslarning yangi siyosiy qarashlarga rioya qilishlari mavzusida bo'lgan o'zgarishlar, siyosiy rejimni tabiiy ravishda o'zgartirishga ulush kirituvchi kollektivchiliklar, davlat institutlarining qo'lga kiritishlar va boshqalar.

Ikkinchi yo'nalish - iqtisodiy o'zgarishlar: iqtisodiy qoidalarning, siyosiy siyosatning, iqtisodiy muhitning o'zgarishlari, malakali kadrlarni mobilizatsiyalash, sug'urta siyosatining o'zgarishlari, moliyaviy institutlarning va banklar muhitida o'zgarishlar, korporativ boshqaruvning yangi tadqiqotlari, iste'molchilar toifalarining o'zgarishlari va boshqalar.

Uchinchi yo'nalish - axborotda o'zgarishlar: siyosiy elitaning informatsiyaga kirishining o'zgarishi, axborot sohasida yangi huquqiy va siyosiy hodisalarning kelishi, kundalik media va sotsial tarmoqlar orqali axborot siyosati, siyosiy elita haqidagi axborotning ochiq bo'lishi va boshqalar.

O'zgarishlar va mezonlardan bir nechta asosiy yo'nalishlarda foydalaniladi. Bu siyosiy elitaning tadbirlari, ularning huquqlari va resurslari bilan bog'liq. Boshqa so'zlarda, siyosiy elita samaradorligi, siyosiy, iqtisodiy va axborot sohalaridagi o'zgarishlarning o'zida sodit bo'ladi.

Siyosiy elitaning turlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak bu haqida siyosiy olimlar bilan bo'lgan muhokamada quyidagilar yoritilib o'tilgan: bu jamiyat, uning an'analari, fikrlashi, tarixiy yo'lini rivojlantirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonda davlat apparatini takomillashtirishning o'ta murakkab muammolari yechimini izlashda avlodlar almashuvi yo'lidan borilmoqda. I.A.Karimov bu masalada o'z nuqtai nazarini tariflab: "Mening eng katta ishonchim yosh avloddir. Zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmi, ko'rsang havasing keladigan, barkamol va

shijoatli farzandlarimizdir. Men o‘zinning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdirini ham ana shularning qiyofasida ko‘raman”, degan edi.

1. Milliy yetakchilar global muammolarni endilikda chetlab o‘ta olmaydilar. Ular o‘z ichki siyosatlariga umum-jahon, global jarayonning bir qismi sifatida qaramoqdalar.

2. Norasmiy yetakchilarning roli va ta’siri ortib bormoqda.

3. Yetakchilar faoliyati iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko‘proq qaratilyapti. Bu yetakchi faoliyati bilan bog‘liq ravishda u yoki bu millatning turmush darajasining o‘shida namoyon bo‘lmoqda.

4. Demokratik nazoratning rivojlanishi bois yetakchi-qahramon va yetakchi-antiqahramon kabi siyosatchilarning, paydo bo‘lishi ehtimoli kamaymoqda, ya’ni Napoleon, Gitler, Lenin, Stayain kabilar paydo bo‘lmayapti.

5. Hokimiyatlar bo‘linishi va fuqarolik jamiyati, chegaralarining kengayishi hisobiga siyosiy yetakchi cheklanyapti.

Jamiyatni xatosiz boshqarishning eng yuksak tartiblari va qoidalari yaratilganda ham, bu tartib va qoidalarni hayotga tatbiq eta oladigan oqilona ma’muriy apparat (siyosiy elita) bo‘lmas ekan, barcha harakatlar zoe ketishi mumkin.

Siyosiy elita o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. U jamiyatda zarur siyosiy shart-sharoitlar vujudga kelgandagina yetakchi kuch sifatida maydonga chiqadi. Shakllantiruvchi siyosiy kuch sifatida mamlakatdagi siyosiy partiyalar, siyosiy xarakatlar, jamoat tashkilotlari va siyosiy muxolifat kuchlar maydonga chiqadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. Toshkent-2017

2. <https://www. Researchgate.net>

3. <https://kompy.info>

4. <https://arxiv.uz>

9. Tychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).

10. Tychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

11. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIY BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(26), 335-338.

12. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оилага тайёрлашда оилада эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 68-75.

13. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(4), 4-8.

14. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 311-313).

15. Матякубов, Р., Урмонов, С., Касимова, Х., & Каримов, Ш. (2020). Гидрирование дифурфурлиденацетона на палладиевых катализаторах. *Universum: технические науки*, (3-2 (72)), 37-39.

16. Abdullayeva, U., & Urmonov, S. (2022, October). WAYS OF ENVIRONMENTAL EDUCATION AND ENVIRONMENTAL EDUCATION BY SOLVING ISSUES RELATED TO ECOLOGY IN CHEMISTRY LESSONS. In *Conference Zone* (pp. 69-71).

17. Матякубов, Р., Урмонов, С., Касимова, Х. Х., Абдисаматов, Э. Д., & Исмоилов, Ш. Ш. У. (2019). Защита бетонной поверхности от воздействия агрессивных сред. *Universum: технические науки*, (11-2 (68)), 5-7.

18. Матякубов, Р. М., Урмонов, С. М., Исмоилов, М. Ю., & Ўктамова, Д. О. (2020). СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ СВОЙСТВ ФЕНОЛОФОРМАЛЬДЕГИДНО-ФУРАНОВЫХ СВЯЗУЮЩИХ. *Universum: технические науки*, (11-3 (80)), 72-76.